

TARBIYA OILADAN BOSHLANADI

Usmanova Qumriniso Saidaliyevna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

“Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrası o‘qituvchisi

Risbayeva Farangiz G‘aybullo qizi

CHDPU Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti 2-kurs talabasi

Annatsiya: *Ushbu maqolamda oilaning muqaddasligi, ana shu dargohda biz kamol topamiz. Ulg‘ayamiz va mustaqil hayotga qadam qo‘yishimiz haqidadir.*

Kalit So‘z: *Oila, muqaddas, zamonimiz, oilaviy qadriyatlar, o‘zbek xalqi, odob-axloq, tarbiya.*

KIRISH

Oila muqaddas dargoh. Biz ana shu oilada kamol topamiz, ulg‘ayamiz va mustaqil hayotga qadam qo‘yamiz. Har bir millat o‘z istiqbolini kamolga yetayotgan yoshlari timsolida ko‘radi. Shuning uchun ham jamiyatning tayanchi — oila sanaladi.

O‘zbek xalqi qadim zamonlardan oilani muqaddas bilgan. Oiladagi tarbiya oilaviy hayotni kuzatish, o‘rnak olish va yaxshi o‘g‘itlar eshitish orqali shakllanadi.

Hozirgidek murakkab sharoitda milliy o‘zligimiz, azaliy qadriyatlarimizga yot bo‘lgan xurujlar, ularning ongi hamda qalbini egallashga qaratilgan g‘arazli intilishlar tobora kuchayib borayotgani har birimizdan yanada hushyor va ogoh bo‘lishni talab etmoqda. Oq-qorani ajrata olmagan g‘o‘r yoshlarni bunday oqimlar domiga tushib qolishdan asrash ta‘lim-tarbiya ishiga mas‘ul bo‘lgan ota-onaga yuksak mas‘uliyat yuklaydi. Ulug‘ ma‘rifatparvar Abdulla Avloniy aytganlaridek, “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir”.

Nazarimda oilaviy qadriyatlar asta-sekin zavol topayotgandek. Ayniqsa, bu vaziyat aholining yarmini tashkil etadigan poytaxtda avj olmoqda. Buni bir qancha dalillar bilan isbotlash mumkin. To‘g‘ri, shaharda raqobat kuchli, yaxshining o‘rnini zo‘r, zo‘rning o‘rnini undan ham uddaburoni bosaveradi. Demakki, tuzukroq ishga joylashib, to‘rt so‘m pul topishing, biringni ikki qilishing uchun jon-jahding bilan kurashmog‘ing kerak.

Shu sabablimi, bugun birovning haqidan hazar qilish, halollik va mehnatsevarlik kabi oliy sifatlarni butkul unutib yuborgan oilalar ko‘paysa ko‘payyaptiki, aslo kamayayotgani yo‘q. Ayanchlisi, o‘zni o‘ylash, shaxsiy manfaatni ustun qo‘yish, g‘irromlik kabi illatlar faqat bir avlodni zaharlayotgani yo‘q. Ular tarbiya asnosida keyingi avlodlarga ham meros bo‘lib qolmoqda.

Yana bir jihatga e‘tiboringizni qaratmoqchimiz. Hozirgi zamonda ma‘naviy qadriyatlar o‘z joyini nafs, hirs, xoyu-havasga bo‘shatib berayotgani va ko‘p jihatdan aynan shu holat yoshlarimiz orzu-intilishlariga tamal toshi qo‘yayotganini ko‘rib-bilib turibmiz. O‘zi uyini kitob o‘rniga, turli keraksiz buyumlar bilan to‘ldirib, vaqt topildi deguncha internet va televizordan bosh ko‘tarmaydigan, topganini to‘y uchun

sariflaydigan, farzandlarini ham shunday yashashga o'rgatayotgan ota-onalar afsuski oramizda bor.

Ma'naviy qashshoq insongina o'ziga berilgan shu qisqagina umrini boylik to'plash, shon-shuhrat va mansabga intilishga sariflaydi. Ba'zida omi odamlar emas ziyolilar orasida ham shunday insonlar borligidan hafa bo'lib ketaman. Bunday insonlar el koriga yarashga, yurt taraqqiyoti yo'lida fidoyilik ko'rsatishga qodir emas! Afsuski, ularning zurriyodlari ham, ota-onasidan qolishmagan holda, hayot yo'lini davom ettiradi. Bunday kelajak bilan uzoqqa borib bo'larmidi?

XULOSA

Atrofga boqing, biz qayoqqa qarab ketyapmiz o'zi, to'xtash vaqti kelmadimikan?

Oila jamiyatning bir qismidir. Shunday ekan oilada berilgan tarbiya nafaqat oiladagi muhitga balkim jamiyatga ham ta'sir qiladi. Bizdan talab etilayotgan narsa to'g'ri tarbiya berish, ruhan va ma'nam yetuk inson qilib tarbiyalash.

ADABIYOTLAR:

1. Mirqosimova M. THE VIEWS OF AHMED YASSAVI ON SPIRITUAL EDUCATION //The Light of Islam. – 2019. – T. 2019. – №. 1. – C. 10.
2. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. – T.: Voris-nashriyot, – 2013. – B. 10-35.
3. Mirqosimova M.M. Masofaviy ta'lim sharoitida o'quv fanlarini integratsiyalash tamoyillari // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar (2020 yil №1). 69- 80-b
4. Usmonova Q.S . Boshlangich sinf o'quvchilarida tankidiy fikrlashni shakllantirishda pedagogic-psixologik integratsiya va uzluksizlik. М УАЛЛИМ ХЕМ УЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИ . 2023/3 .370-375-b <https://lib.cspi.uz/index.php?newsid=7951>
5. Usmonova Q.S. Boshlangich ta'limda Filandiya ta'lim tizimini imkonoyatlari . Международный научный журнал № 4 (100), часть 2 «Научный импульс» Ноябрь, 2022./4. 899-903-b
6. Usmonova Q.S Development of Steam International Assessment Program in Primary Education. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE. 30th Apr 2023. 242-244 s
7. Usmonova Q.S. Use of Foreign Experiences and World Pedagogy in Elementary Education Teaching . Diversity Research: Journal of Analysis and Trends . Volume 1, Issue 5, August 2023 . 27-29 s